



# TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-19, (July) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**RAZZOQOV Bexzod Gofurovich**  
*Mustaqil izlanuvchi*

## **TIJORAT BANKLARINING BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Bugungi kunda biznes loyihalarini kreditlash biznes faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy jihat sifatida xizmat qilmoqda. Xalqaro amaliyotda biznes vakillarining biznes g'oyani kreditlashda qiyinchiliklarga duch kelishi hamda etarli kapital jalb qila olmasligi natijasida biznes faoliyatini samarali tashkil eta olmasligi holatlari tez-tez uchraydi. Mazkur masalani ijobiy hal qilish maqsadida so'nggi yillarda biznes loyihalarini kreditlashning yangi usullari va shakllari yuzaga keldi. Shunga qaramasdan kompaniyalar biznes loyihalari kreditlashning an'anaviy usullaridan, jumladan, tijorat banklari kreditlaridan hanuzgacha keng miqyosda foydalanib kelmoqda va mazkur holatni xorijiy mamlakatlar tajribasida ham, milliy amaliyotda ham kuzatish mumkin.

Biznes loyihalarini kreditlashda tijorat banklari ishtirokini o'rganish orqali ta'kidlash lozimki, mazkur kreditlash shaklidan ancha yillardan beri foydalanilayotganligiga qaramasdan turli darajada rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda biznes loyihalari kreditlashda tijorat banklarining mablag'laridan foydalanish shartlari hamda imkoniyatlari turlicha shakllangan. Tijorat banklari boshqa tarmoqlarda bo'lgani kabi o'z tovarini (ssudasini) pulga almashtirmaydi, balki qarzga olingan mablag'larning qaytarilmasligi xavfini o'z zimmasiga oladi. Shu boisdan mamlakatimizda tijorat banklarining biznes loyihalarini kreditlashdagi ishtirokining tashkiliy jihatlarini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

J. Kensinger va J. Martin o'z tadqiqotlarida biznes loyihalarini kreditlashda tijorat banklarining ishtirokini yoritgan. Ularning fikricha xalqaro amaliyotda xorijiy tijorat banklari "... faol investorlar bo'lib kelgan va ular uchun loyihalarni kreditlash mavjud an'anaviy amaliyotni kengaytirish hisoblanadi" [1].

K. Ganbat va boshqalarning fikricha, "... keyingi paytlarda jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda tijorat banklarining kapitali ekologik loyihalarini kreditlashning muhim manbai hisoblanadi. Biznes loyihalarni kreditlashning o'ziga xos xususiyatlaridan biri loyihalarni kreditlashning turli manbalari, vositalari va usullaridan, jumladan, bank kreditlari, aksiyalar emissiyasi, obligatsiyalar, lizing, o'z mablag'lari va hokazolardan keng foydalanish imkoniyatidir. Loyihaviy kreditlash uchun qarz mablag'lari ikki asosiy manba: tijorat banklari va obligatsiyalar investorlari tomonidan taqdim etiladi" [2].

Ta'kidlash lozimki, uzoq yillardan beri tijorat banklari loyihalarni kreditlashning an'anaviy va ishonchli manbalaridan biri sifatida keng foydalanilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan mikromoliya xizmatlarini rivojlantirish uchun amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining 2023 yil 10 noyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o'rni va ulushini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga asosan mamlakatimizda mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobarga oshirish va mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliarddan ortiq tadbirkorlik sub'ektlarini qamrab olishga qaratilgan 2024-2026 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar belgilab berildi [3].

E. Escombe biznes loyihalarini kreditlashda mahalliy tijorat banklari ishtirok etishining ahamiyatiga to'xtalib, "... ma'lum bir davlatdagi loyiha o'z mablag'larini mazkur mamlakatda faoliyat yurituvchi banklardan jalb qilgani ma'qul. Birinchidan, ular mahalliy sharoitni yaxshi tushunadi. Ikkinchidan, moliyalashtirish mamlakat valyutasida taqdim etilishi natijasida valyuta risklarining oldi olinadi. SHu sababli rivojlangan mamlakatlarda loyihalar, odatda, mahalliy banklar yoki tegishli mamlakatda filiallari yoki sho'ba korxonalari bo'lgan xorijiy banklar tomonidan moliyalashtiriladi. Bu jarayon loyihalarni moliyalashtirish bozorining eng katta qismini tashkil qiladi" [4].

Demak, mahalliy tijorat banklarining biznes loyahasini moliyalashtirishda ishtirok etishi xorijiy tijorat banklari va boshqa moliyalashtiruvchi moliyaviy institutlar tomonidan e'tiborga olinadi.

L. Sabirova va N. Xanova o'z tadqiqotlarida biznes loyahasini moliyalashtirishdagi ayrim jihatlarga to'xtalib, "Investitsion loyihalarni moliyalashtirishni tashkil etish kompaniya va loyiha rahbari uchun anchagina keng ko'lamliligi, mehnat talab qiladigan, uzoq va mas'uliyatli jarayondir. Bu jarayon, ayniqsa, investitsiya loyihalarini amalga oshirish tajribasiga ega bo'lmagan korxonalar uchun qiyin. SHu bilan birga, loyiha tashabbuskorlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri optimal moliyalashtirish sxemalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu loyihaning har bir bosqichida ijobiy sof pul oqimi va mablag'lar qoldig'ini olish imkonini beradi, natijada investitsiya loyihaning maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi. Bu erda professional maslahatchilarning yordami, ayniqsa, muhimdir" [5].


Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlarini inobatga olgan holda ta'kidlash mumkinki, biznes loyihalarini kreditlashda tijorat banklarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tijorat banklari sindikatlashgan kreditlardan foydalanishga e'tibor qaratish lozim, chunki bu orqali tijorat banklari risklarni diversifikatsiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tijorat banklarida biznes loyihalarni moliyalashtirish uchun kredit berilishining asosiy shartlariga loyihalarni moliyalash uchun kredit berilishi qarzlarni qoplash vositasi sifatida asosan pul oqimini va loyiha daromadlarini nazarda tutishi, biznes loyihalarni kreditlash uchun milliy va xorijiy valyutada naqd pulsiz shaklda berilishi, loyihalarni moliyalash faqat O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga taqdim etilishi, kredit hisobidan xarid qilinadigan mulk, u likvid bo'lgan taqdirda ushbu kredit bo'yicha garov predmeti hisoblanishi, kreditdan foydalanish muddati loyihaning qoplanishidan kelib chiqib belgilanishi, foiz stavkasi hajmi kredit shartomasi asosida o'zaro kelishilgan holda belgilanishi, kreditning va u bo'yicha foizlarning to'lanishi prognoz qilinayotgan pul oqimini hisobga olgan holda to'lov jadvali asosida amalga oshirilishi kabilarni kiritish mumkin.

Biznes loyihalarini kreditlashda kredit berish shartlari tijorat banklari tomonidan jalb qilingan kredit liniyalarining xususiyatlari va ko'rsatkichlariga ham bog'liq.

Biznes loyihalarini kreditlashda mablag'lar, asosan, tijorat banklari tomonidan taqdim etiladi. Mazkur jarayonda jalb qilingan mablag'lar loyihaning aktivlari hisobiga sekyuritizatsiya qilinadi. Qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga tayanadigan tijorat banklari uzoq muddatga qat'iy foiz stavkalari bo'yicha kredit berishni istamasalar-da, ular suzib yuruvchi va qat'iy belgilangan foiz stavkalari kombinatsiyasi orqali moliyalashtirishni tashkil qilishlari mumkin. Natijada mazkur holat loyihaning foiz riskini kamaytiradi.

Aksariyat biznes loyihalarining keng ko'lamliligi ularni bitta bank (qarz beruvchi) tomonidan moliyalashtirish imkoniyatini pasaytiradi. Shu sababli aksariyat hollarda loyihalarni moliyalashtirish uchun banklar (qarz beruvchilar) sindikatlari tuziladi. Xalqaro miqyosdagi loyihalarda banklar (qarz beruvchilar) guruhi turli mamlakatlardan bo'lishi mumkin hamda moliyalashtirishda mahalliy banklar ishtiroki deyarli aniq bo'ladi. Mazkur holat xorijiy banklar uchun ishonchlilikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan xorijiy banklar tomonidan jalb qilingan kredit liniyasining moliyalashtirish shartlari (xorijiy valyutada)

Fikrimizcha xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, biznes loyihalarini moliyalashtirishda sindikatlashgan kreditlardan foydalanish amaliyotda tez-tez uchraydi. Sindikatlashgan kreditlash amaliyoti katta miqdordagi mablag'ni jalb qilish imkoniyatini taqdim etadi. Natijada, biznes loyahasini amalga oshirish jarayonida kapital yetishmovchiligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish mumkin bo'ladi.

Milliy amaliyotni o'rganish natijasida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklarida biznes loyihalarini moliyalashtirish maqsadida xorijiy kredit liniyalari asosida taqdim etilayotgan xorijiy valyutadagi kreditlar foiz stavkalari xalqaro amaliyotdagiga nisbatan yuqori deyishimiz mumkin. mazkur holat xorijiy banklarning milliy bozorga qiziqishini oshirishga xizmat qilsa, mahalliy biznes vakillari uchun valyuta riskining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, deyish mumkin. Shu boisdan xorijiy kredit liniyalari asosida xorijiy valyutada kredit olishda kapital bahosini hamda biznes loyihalarining daromadlilikini to'g'ri prognoz qilish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. John W. Kensinger, John D. Martin. Project Finance: Raising Money the Old-Fashioned Way. // Journal of Applied Corporate Finance 1(3), April 2005. – p. 69.
2. Khaliun Ganbat, Inessa Popova, Ivan Potravnyy. Impact Investment of Project Financing: Opportunity for Banks to Participate in Supporting Green Economy. // Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management, № 4, November 2016. – p. 72.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda mikromoliya xizmatlarining o‘rni va ulushini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-364 sonli Qarori.
4. E. R. Yescombe. Principles Project Finance. // An Imprint of Elsevier, 525 B Street, Suite 1900, San Diego, California, USA, 2002. – p. 24
5. Sabirova L., Xanova N. Investitsion konsaltingni rivojlantirish – muvaffaqiyatli investitsion loyihalaririni jadallashtirish omili sifatida // Ekonomika i finansы (Uzbekistan). 2023. №2 (162).